



Asosiy tarkib



Yirik
korxonalar




Kichik biznes va xususiy
tadbirkorlik subyektlari


Dastlabki ma'lumotlar

Namangan viloyati bo'yicha 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 19 687,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 14,2 % ga ko'paygan. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 512,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 134,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 18 174,7 mlrd. so'mni (12,7 % ga ko'paygan). Shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 3 054,3 mlrd. so'mni (19,5 % ga ko'paydi) tashkil etdi.

Tarkibiy qism, ulushlarda



o'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda






HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so‘m

UMUMIY MA'LUMOT

Namangan viloyati bo'yicha 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **16 994,1** mlrd.so'm ni tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **14,4 %** ni tashkil etdi.

Namangan viloyati chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda ko'payish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **92,3 %** va yirik korxonalar hissasiga **7,7 %** to'g'ri keldi.




ENG YUQORI ULUSH

Namangan viloyati bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Namangan shahri **39,7 %** ulush **7 817,6** mlrd. so'm ni tashkil etdi.

ENG QUIYI ULUSH

Namangan viloyati chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Mingbuloq tumanida **2,5 %** ulush bilan **500,8** mlrd.so'mni tashkil etdi.

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari
2021-yil Yanvar-dekabr	
2022-yil Yanvar-dekabr	

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022-yil yanvar–dekabr oylari yakuniga ko'ra, 18 174,7 mlrd.so'm ni tashkil etib, 2021-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 12,8 % ga ko'paygan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 92,3 % ni tashkil etdi.


Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda Uychi ,Kosonsoy(99,2 %), Yangiqo'rg'on (98,2 %) , Chortoq (97,6 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.





2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining ko'payish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Chust (124,7 %), Norin (111,2 %) tumanlarida qayd etildi.



Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	19 687,0	114,2	1 512,3	134,7	18 174,7	112,8
Namangan sh.	7 817,6	114,1	656,1	138,8	7 161,5	112,2
tumanlar:						
Mingbuloq	500,8	111,8	20,0	3,4 m.	480,7	108,7
Kosonsoy	1 117,9	112,0	8,7	109,1	1 109,2	112,0
Namangan	755,7	120,8	56,1	2,8 m.	699,6	115,5
Norin	1 219,7	111,2	54,8	97,0	1 164,9	112,0
Pop	1 505,0	110,2	42,8	58,5	1 462,3	113,1
To'raqo'rg'on	1 260,3	111,5	99,0	84,2	1 161,3	114,7
Uychi	1 014,9	117,0	8,0	104,2	1 006,8	117,1
Uchqo'rg'on	854,2	113,3	38,5	102,7	815,7	113,8
Chortoq	825,1	112,2	19,5	109,4	805,6	112,3
Chust	1 707,9	124,7	489,1	170,9	1 218,9	112,5
Yangiqo'rg'on	1 107,9	111,4	19,7	99,3	1 088,1	111,7

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **34,7 %** ga ko'paygan va **1 512,3** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **7,7 %** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra **18 174,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar - dekabr oylariga nisbatan **12,8 %** ga ko'paygan. viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **92,3 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Uychi, (99,22 %), Kosonsoy (99,2 %), va Yangiqo'rg'on (98,2 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 7,7 % ni tashkil etib, eng katta ulush Chust (28,6 %), Namangan sh. (8,4 %), To'raqo'rg'on (7,9 %) tumanlarida kuzatildi.



NAMANGAN VILOYATI Bo'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA o'SISH SUR'ATLARI

2022-yil yanvar-dekabr oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **6 641,4** ming so'm (2021-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 11,7 % ga ko'paygan). Chust (122,3 %), Namangan (118,0 %) Uychi (114,3 %) va Namangan sh. (111,2 %) tumanlari va boshqa barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida ko'payish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Namangan shahri (11 675,1 ming so'm), Norin (7 136,9 ming so'm) va Pop (6 569,2ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	6 641,4	111,7
Namangan sh.	11 675,1	111,2
tumanlar:		
Mingbuloq	3 776,5	109,4
Kosonsoy	5 076,6	109,5
Namangan	4 063,0	118,0
Norin	7 136,9	109,1
Pop	6 569,2	108,0
To'raqo'rg'on	5 328,9	108,8
Uychi	4 516,5	114,3
Uchqo'rg'on	4 748,2	111,1
Chortoq	3 961,3	110,0
Chust	6 163,7	122,3
Yangiqo'rg'on	4 829,4	109,0



**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI**

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,6 %** ni tashkil etib, **310,4 mlrd. so‘mga** yetdi va 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **18,3 %** ga ko‘paygan. Bunda jami savdo aylanmasining **85,8 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining
o‘shish sur‘atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so‘m	2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar , mlrd. so‘m	2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mlrd. so‘m	2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	310,4	118,3	44,2	581,8	266,2	104,5
Namangan sh. tumanlar:	176,8	121,0	31,8	417,7	145,0	104,7
Mingbuloq	7,2	103,7	0,0	0,0	7,2	103,7
Kosonsoy	6,9	105,1	0,0	0,0	6,9	105,1
Namangan	22,7	125,1	4,0	0,0	18,8	103,2
Norin	5,7	107,4	0,0	0,0	5,7	107,4
Pop	15,7	103,7	0,0	0,0	15,7	103,7
To‘raqo‘rg‘on	8,7	103,3	0,0	0,0	8,7	103,3
Uychi	4,4	112,6	0,0	0,0	4,4	112,6
Uchqo‘rg‘on	8,0	105,5	0,0	0,0	8,0	105,5
Chortoq	8,1	105,4	0,0	0,0	8,1	105,4
Chust	40,5	130,3	8,5	0,0	32,0	102,9
Yangiqo‘rg‘on	5,7	106,3	0,0	0,0	5,7	106,3

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Namangan viloyati bo'yicha 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **9 252,1** mlrd. so'm ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **27,2 %** ga ko'paygan Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **1 569,3** mlrd. so'mni (**52,2 %** ga ko'paygan), mikrofirmalar va kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **7 682,8** mlrd. so'mni (**23,0 %** ga ko'paygan).


o'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar

Mikrofirma va kichik korxonalar

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



Chortoq

Norin

Uychi


Namanagan Sh



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur‘atlariga ega yirik korxonalar Norin (147,0 m.), Pop (104,5 m.), Kosonsoy (90,9m.), Namangan (41,5 m.) tumanlarida kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o‘zgarish sur‘atlari, Pop (2,0 m. %), Uchqo‘rg‘on(164,9 %) Namangan sh.(152,4 %) viloyatlarida qayd etildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o‘shish sur‘atlari, foizda




	Jami, mlrd. so‘m	2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so‘m	2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	9252,1	127,2	1569,3	152,2	7682,8	123,0
Namangan sh. tumanlar:	5527,0	152,4	846,5	3,6 m.	4680,5	138,0
Mingbuloq	136,1	103,0	0,1	51,6	136,0	103,0
Kosonsoy	359,3	105,5	19,1	90,9 m.	340,2	100,0
Namangan	376,0	113,8	45,7	41,5 m.	330,3	100,3
Norin	531,6	124,5	91,6	147,0 m.	440,1	103,1
Pop	271,1	206,0	82,5	104,5 m.	188,6	144,1
To‘raqo‘rg‘on	382,6	68,4	256,3	57,3	126,3	112,8
Uychi	529,4	86,1	72,7	44,3	456,7	101,3
Uchqo‘rg‘on	134,3	164,9	53,2	49,8 m.	81,2	100,9
Chortoq	464,4	96,1	0,0	0,0	464,4	107,8
Chust	164,8	86,6	101,6	78,8	63,2	103,2
Yangiqo‘rg‘on	375,3	105,2	0,0	0,0	375,3	105,2

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, **9 252,1** mlrd.so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **27,2** % ga ko'paygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **83,0** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Yangiqo'rg'on va Chortoq, (100,0 %), Mingbuloq, (99,9 %), tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulushi esa Chust (38,4 %) tumaniga to'g'ri keldi.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi
boshqarmasi
Tel : (69)-211-72-00